

MAKTAB VA OILA INTEGRATSIYASI

Abdiyeva Shohista Najim qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'limga yo'nalishi 3_21-guruh talabasi

Ilmiy rahbari: Umarova Dilafro'z Anvarovna

E-mail: abdiyevashohista975@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarning tajovuzkor xatti-harakatlarini bartaraf etish bo'yicha maktab o'qituvchilari mahalla va ota-onalarning tuzatuvchi-pedagogik birgalikdagi faoliyati, shuningdek, jamiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolari yosh avlodning shaxsiy rivojlanishi va xulq-atvoriga sezilarli ta'siri tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *jamiat, deviant behavior, hatti-harakatlar, yosh avlod, ma'naviy bo'shliq, pedagogika.*

Аннотация: В статье рассматривается совместная коррекционно-педагогическая деятельность школьных учителей, общественности и родителей, а также роль общества в искоренении агрессивного поведения среди молодежи.

Ключевые слова: общество, девиантное поведение, молодое поколение, духовная пустота, педагогика.

Abstract: This article discusses the joint corrective and pedagogical activities of school teachers, neighborhoods, and parents, as well as the role of society in eliminating aggressive behavior among young people.

Keywords: society, deviant behavior, young generation, spiritual void, pedagogy.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa'y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Kontsepsiysi yoshlarni istiqlol g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi. Respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ta'limga tarbiya to'g'risidagi qator me'yoriy hujjatlar, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvaffaqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlovchi kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv bilim yurti nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqzo etadi. Zero, ta'limga tarbiyanı takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini,

jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish; ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lган hurfikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya — milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash; uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash; to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash; beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtida jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir. Davlatimiz rahbari ko'rsatib bergenidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar: birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga; ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnni topishini tezlashtirishga; uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda; to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga; beshinchidan, umumiyligini va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan. Mazkur Kontsepsiya taraqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi. Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlari shakllantiriladi. Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigityenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Kontsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosliliginini ta'minlaydi. Kontsepsiya oilaga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'naviyat va ma'rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezoni, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne'mat bo'lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo'llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g'aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo'lida bedor bo'lishga, bu olamni obod qilishga, go'zallikka burkashga chorlagan. Lekin bugungi kunda ming yillar davomida sayqallanib, boyib, rivojlanib kelgan yuksak ma'naviyatimiz, boqiy qadriyatlarimiz, axloqiy fazilatlarimizga soya solayotgan, umid gulshanlarimiz bo'lgan aziz farzandlarimiz ma'naviy-ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlarni ko'rib tashvishlarimiz ortib bormoqda. Ta'bir joiz bo'lsa,

ezgulik va yovuzlik, buniyodkor va vayronkor kuchlar, g'oyalar o'rtasidagi kurash tobora oshkora namoyon bo'lmoqda.

Xulosa.Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyilagini ta'minlash, targ'ibot-tashviqot va ta'lmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimi joriy qilinadi. El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyati oshadi, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immuniteti kuchaytiriladi. Madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlikmatbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ'iboti ustuvorligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Xayrullayev. Forobiy. Toshkent., 1963, 260-bet.
2. A.Navoiy.Hayratul Abror. - T .: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 139- bet.
3. Jamiyat sivilizatsiya. Davlat: ijtimoiy tarixiy taraqqiyot omillari. T.2007 78-bet.
4. Самиева Ш. Х. ВАЖНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.
5. Самиева Ш. Х., Маджидова М. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. _2020